


O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60220300 – *Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim  
yo'nalishining malaka talablari*

Toshkent - 2023



**ISHLAB CHIQILGAN:**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «11» 08 dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

| Tir    |  | bet |
|--------|--|-----|
| 1.     | 60220300 – <i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....  | 4   |
| 1.1.   | Qo'llanish sohasi .....  | 4   |
| 1.1.1. | 60220300 – <i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi.....                                   | 4   |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....   | 4   |
| 1.2.   | 60220300 – <i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....                     | 4   |
| 1.2.1. | 60220300 – <i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....                       | 4   |
| 1.2.2. | 60220300 – <i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....                  | 4   |
| 1.2.3. | 60220300 – <i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....                     | 5   |
| 1.2.4. | 60220300 – <i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....                               | 5   |
| 2.     | 60220300 – <i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar..... | 6   |
| 2.1.   | Umumiy kompetensiyalar.....  | 6   |
| 2.2.   | Kasbiy kompetensiyalar.....  | 6   |
| 2.3    | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....  | 7   |
| 2.3.1. | Kvalifikatsiya.....  | 8   |
| 2.3.2. | 60220300 – <i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....    | 8   |
| 2.3.3. | 60220300 – <i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tuzilishi.....                                   | 9   |
|        | Bibliografik ma'lumotlar.....  | 10  |
|        | Kelishuv varag'i .....   | 11  |

## **1. 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining tavsifi**

60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta‘lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi – fan sohasidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘lib, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalarida ta‘lim yo‘nalishiga oid fanlarni o‘qitish; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasbiy ta‘limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog‘lik kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:**

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalarida;

- ijtimoiy faoliyatlar doirasida barcha ishlab chiqarish ob‘ektlarida;

- turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan idora va tashkilotlarda;

- tarix sohasiga doir nazariy muammolar, O‘zbekiston va jahon xalqlari madaniyati tarixi, tarixiy obidalar, tarixiy manbalar, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar, jamiyatning turli sohalari va ularning rivojlanish tarixi, millatlararo etnik munosabatlar, moddiy va ma‘naviy



madaniyat, umumiy o'rta va o'rta-maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida ta'lim tarbiya jarayoni va hokazo.

60220300 – *Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida tarbiya, tarix fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

**1.2.3. 60220300 – *Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tizimida);*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ma'naviy – ma'rifiy faoliyat.*

**1.2.4. 60220300 – *Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60220300 – *Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida:**

- umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;
- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;
- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- tarix fanlariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalanish usullarini egallagan bo'lishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- nodavlat va notijorat tashkilotlarda, xususiyl tadbirkorlik sub'ektlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha menedjer sifatida faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2. 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, ilmiy madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalanish usullarini egallagan bo'lishi;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- O'zbekiston tarixi, jaxon tarixi, O'zbekiston davlatchiligi tarixi, arxeologiya va etnologiya, tarixiy antropologiya, fanlarini o'rganish bilan tarix bilim sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim.



– bilimlarni yo‘naltirishda muhim hisoblangan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliyotdagi qobiliyat va yangiliklarni shakllantirish;

– tarix ta‘lim sohasi yo‘nalishidagi ixtisoslik fanlarni o‘rganish va chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko‘nikma va o‘quvlarni shakllantirishi;

– umumkasbiy fanlar o‘zlashtirishni ta‘minlash, tarix fani sohalari bo‘yicha ma‘lumotlarga ega bo‘lish va qayta ishlash metodlaridan zaruriy bilimga ega bo‘lish;

– O‘zbekistonning madaniyati va san‘ati tarixi, O‘zbekistonning eng yangi tarixi, xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi, tarix o‘qitish metodikasi fanlaridan bilimga ega bo‘lishini ta‘minlash;

– tarix ta‘lim yo‘nalishida olingan ma‘lumot va natijalarni qayta ishlash yo‘riqlariga oid bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini ta‘minlashi lozim.

– tarix ta‘lim sohasidagi talabalarining kasbiy faoliyatiga muvofiq butun jahon va mamlakatimizda sohadagi mavjud muammolar, erishilgan yutuqlar va sohani rivojlantirish istiqbollari haqida tassavur hosil qilishi;

– manbashunoslik va tarixshunoslik, sharq allomalarining ilmiy merosi va sharq tillari fanlaridan bilimlarga ega bo‘lishini ta‘minlash;

– tarixiy yozma manbalar unumli foydalanish, ulardan tarixiy tadqiqotlarda foydalana olish bo‘yicha muhim bilimlar olishni ta‘minlash;

– tarixiy o‘lkashunoslik va urbanizatsiya jarayonlari, tarix falsafasi va metodologiyasi, jahon sivilizatsiyalari tarixi fanlari bo‘yicha maxsus bilim, o‘quv va ko‘nikmalarni shakllantirish;

– tarix ta‘lim sohasidagi talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida ta‘limni davom ettirishga ongli munosabatda bo‘lishiga ko‘maklashishi;

– umumiy pedagogika nazariyasi, o‘qitish jarayoni, o‘qitishning ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari; ta‘limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar; ta‘lim jarayonida motivatsiya; ta‘lim metodlari, vositalari va texnologiyalari; umumiy va xususiy metodlar; umumiy pedagogik texnologiyalar; ta‘lim tizimini boshqarish; pedagogik mahorat; umumiy psixologiya: umumiy psixologiyaning sohalari. yosh va pedagogik psixologiya: ta‘limni va bilimlarni o‘zlashtirishni boshqarish psixologiyasi; ta‘lim va aqliy taraqqiyot; tarbiya metodlari va formalari; bo‘lg‘usi o‘qituvchi shaxsi sifatлари; pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot haqida bilim berishi borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta‘lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

o‘quv-tanishuv amaliyoti – tarix sohasiga tegishli tarmoqlari bilan tanishishni hamda umumkasbiy fanlar bo‘yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashni nazarda tutadi;

ishlab chiqarish amaliyoti – tarix sohasida faoliyat turlari bilan tanishish, jarayonlarda bevosita ishtirok etish asosida amaliy ko‘nikmalar hosil qilish hamda fanlardan olingan nazariy bilimlarni mustaxkamlashga mo‘ljallangan;

pedagogik amaliyot - kasb ta‘limi yo‘nalishlari uchun pedagogik amaliyot kasb-xunar ta‘limi muassasalarida psixologik resurslarini o‘rganish, o‘quvchining shaxs portretini tuza bilish, o‘quv guruxi ichida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaza olish, pedagogik maxoratini oshirish, o‘quvchining fikrlash doirasini aniqlash, uning qobiliyatini oshirish usullarini qo‘llay bilish, pedagogik muloqotni baxolay bilish va shular asosida o‘z pedagogik mehnat faoliyati uchun dastur yarata bilish ko‘nikmalarini egallashga mo‘ljallangan.

**2.3.1. Kvalifikatsiya:** tarixchi, pedagog.

**2.3.2. 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:**

| O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta‘lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|--|---|-------------------|
| Majburiy fanlar  | 4920  | 164               |
| Tanlov fanlar  | 1200  | 40                |
| Malakaviy amaliyot                                     | 630   | 21                |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi                          | 450   | 15                |



**2.3.3. 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasi tuzilishi**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Fan o‘tiladigan semestr |
|------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|-------------------------|
| 1.00 |                        | <b>Majburiy fanlar</b>                                 | <b>4920</b>                         | <b>164</b>     |                         |
| 1.01 | FALB204                | Falsafa  | 120                                 | 4              | 4                       |
| 1.02 | URTB104                | O‘zbek (rus) tili                                      | 120                                 | 4              | 2                       |
| 1.03 | XJTB104                | Xorijiy til  | 120                                 | 4              | 1                       |
| 1.04 | DINB204                | Dinshunoslik   | 120                                 | 4              | 2                       |
| 1.05 | UPPB308                | Umumiy pedagogika va psixologiya                       | 240                                 | 8              | 5,6                     |
| 1.06 | TARB204                | Tarbiya  | 180                                 | 6              | 3                       |
| 1.07 | ARXB105                | Arxeologiya  | 150                                 | 5              | 1                       |
| 1.08 | ETNB104                | Etnologiya   | 120                                 | 4              | 2                       |
| 1.09 | UZTB127                | O‘zbekiston tarixi                                     | 870                                 | 29             | 1,2,3,4,5               |
| 1.10 | JATB125                | Jahon tarixi   | 870                                 | 29             | 1,2,3,4,5               |
| 1.11 | MTFB108                | Maxsus tarix fanlari                                   | 240                                 | 8              | 1,2                     |
| 1.12 | TAGB105                | Tarixiy geografiya                                     | 150                                 | 5              | 1                       |
| 1.13 | RATB204                | Raqamli tarix  | 120                                 | 4              | 4                       |
| 1.14 | JSTB104                | Jahon sivilizatsiyalari tarixi                         | 120                                 | 4              | 3                       |
| 1.15 | FTTB204                | Fan va texnika tarixi                                  | 120                                 | 4              | 4                       |
| 1.16 | SHTB208                | Manbashunoslik va tarixshunoslik                       | 240                                 | 8              | 3,4                     |
| 1.17 | TAUB204                | Tarixiy o‘lkashunoslik                                 | 180                                 | 6              | 6                       |
| 1.18 | SHMB 208               | Sharq allomalarining ilmiy me‘rosi                     | 120                                 | 4              | 3                       |
| 1.19 | XMDB304                | Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi             | 120                                 | 4              | 6                       |
| 1.20 | UDTB 306               | O‘zbekiston davlatchiligi tarixi                       | 120                                 | 4              | 6                       |
| 1.21 | EUYB306                | Eski o‘zbek yozuvi                                     | 120                                 | 4              | 6                       |
| 1.22 | UMSB405                | O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi           | 180                                 | 6              | 7                       |
| 1.23 | TUMB405                | Tarix o‘qitish metodikasi                              | 180                                 | 6              | 7                       |
| 2.00 |                        | <b>Tanlov fanlar</b>                                   | <b>1200</b>                         | <b>40</b>      |                         |
| 2.00 |                        | <i>Tanlov fanlar</i>                                   | 1200                                | 40             | 5,6,7                   |
|      |                        | <b>Jami</b>  | <b>6120</b>                         | <b>204</b>     |                         |
|      |                        | <b>Malakaviy amaliyot</b>                              | <b>630</b>                          | <b>21</b>      | <b>2,4,6,8</b>          |
|      |                        | <b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>                   | <b>450</b>                          | <b>15</b>      | <b>8</b>                |
|      |                        | <b>Jami</b>  | <b>1080</b>                         | <b>36</b>      |                         |
|      |                        | <b>HAMMASI</b>   | <b>7200</b>                         | <b>240</b>     |                         |

**Tayanch so'zlar:**

Malaka talablari, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, malaka, ko'nikma, o'quv davri, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, loyihalash, ilmiy tadqiqot, tarbiya, arxeologiya, etnologiya, O'zbekiston tarixi, jahon tarixi, maxsus tarix fanlari, tarixiy geografiya, raqamli tarix, jahon sivilizatsiyalari tarixi, fan va texnika tarixi, sharq tillari, tarixiy o'lkashunoslik, O'zbekiston davlatchiligi tarixi, xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi, sharq allomalarining ilmiy me'rosi, manbashunoslik va tarixshunoslik, O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi, tarix o'qitish metodikasi, etnogenez va o'zbek xalqining etnik tarixi, bakalavriatning o'quv jarayoni, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, ta'lim jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQUVCHILAR:

O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor I. Madjidov

2023 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or  
texnologiyalarni tatbiq etish markazi  
Direktor Sh. Yakubov

2023-yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_


M.O'.



O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi  
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi  
Direktor J. Ismailova

2023 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.




Toshkent davlat  
sharqshunoslik universiteti

Rektor G. Rixsiyeva

2023 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.



Urganch davlat universiteti

Rektor B.I. Abdullayev

2023 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

